

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-aprel

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 1592,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 161,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 866,4 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1592,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,8%ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (27%) tashkil etadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan), %



**2019-yil yanvar-aprel oylarida ayrim xizmat turlari hajmining
taqqoslanishi, mlrd. so'm**




Joriy yilning yanvar-aprel oylarida oldingi yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (79,2 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (38,9 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (97,5 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1592,8	113,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	93,3	103,8
moliyaviy xizmatlar	252,0	161,4
transport xizmatlari	405,6	100,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	386,7	100,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	41,1	112,8
savdo xizmatlari	430,7	107,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	50,1	102,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	84,0	160,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	30,8	112,9
ijara xizmatlari	35,1	103,0
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	59,3	107,3
shaxsiy xizmatlar	50,8	99,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	16,0	103,7
boshqa xizmatlar	44,0	120,8

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lif va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (161,4%), ta'lim sohasidagi xizmatlar (160,8%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,9%), yashash va ovqatlanish xizmatlari (112,8%) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019 - yil yanvar - aprel oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi %.**

Eng kam ulush

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar
3,1 %**



**Boshqa xizmatlar
2,8 %**



**Yashash va ovqatlanish xizmatlari
2,6 %**



**Ijara xizmatlari
2,2 %**



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
1,9 %**



**Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
1,0 %**



Eng katta ulush

**Savdo xizmatlari
27,0 %**



**Transport xizmatlari
25,5 %**



**Moliyaviy xizmatlari
15,8 %**



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
5,9 %**



**Ta'lim sohasidagi xizmatlar
5,3 %**



**Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash
3,7 %**



**Shaxsiy xizmatlar
3,2%**




Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiyligi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019 - yil yanvar - aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 430,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi ulushi 27,0%ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 79,2 mlrd. so'mga oshdi.

2019 - yil yanvar - aprel oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 74,8%ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,9%ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan bo'yicha xizmatlar umumiyligi savdo xizmatlari hajmida 7,3%ni egallaydi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovations bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 252,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 161,4%ni tashkil etdi.

2019 - yil yanvar - aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (91,7%) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 78,1% ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 21,9%ga to'g'ri keladi.

2019 - yil yanvar - aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi,%




2018 - yil yanvar - aprel oylari bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiatni, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati esa 112,8%ni tashkil etdi.

Ta'lif sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalam bor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019 - yil yanvar – aprel oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 84,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,3%ni tashkil etdi.


Ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining Taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar oyi bilan taqqoslaganda ta'lif sohasidagi xizmatlarning hajmi 37,5 mlrd. so'mga oshdi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-aprel oylarida 866,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 155,8 ming so'mga oshdi va o'sish sur'atlari 111,9% qayd etildi.

**2019 - yil yanvar-aprel oylarida viloyat bo'yicha
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: U.Bardiyev